



Suhrob PANJIYEV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti v.b., PhD

E-mail: suhrob.panjiyev@mail.ru

Renaissance university dotsenti, DSc D.Uralov taqrizi asosida

HAQIQATNING PRAGMATIK MOHIYATI VA SHAKLLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada haqiqatning pragmatik yondashuvi falsafiy tahlil qilinadi. Pragmatizm haqiqat amaliy oqibatlar bilan o'lanadi, ya'ni bir fikr yoki e'tiqod foydali bo'lsa, u haqiqiy deb qaraladi. Maqolada haqiqatning amaliy asoslari, uning kundalik hayotdagi namoyon bo'lish shakllari va inson faoliyati bilan bog'liqligi o'rganiladi.

Kalit so'zlar: haqiqat, pragmatizm, amaliy oqibat, foyda, falsafa, haqiqat nazariyalari.

ПРАГМАТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И ФОРМЫ ИСТИНЫ

Аннотация

В статье рассматривается прагматический подход к истине с философской точки зрения. В прагматизме истина определяется через практические последствия: если идея полезна, она считается истинной. Анализируются практические основания истины, формы её проявления в повседневной жизни и связь с человеческой деятельностью.

Ключевые слова: истина, прагматизм, практическое последствие, польза, философия, теории истины.

THE PRAGMATIC ESSENCE AND FORMS OF TRUTH

Аннотация

This article examines the pragmatic approach to truth from a philosophical perspective. In pragmatism, truth is assessed by its practical consequences – if a belief or idea is useful, it is considered true. The article explores the practical foundations of truth, its manifestations in everyday life, and its connection to human action.

Keywords: truth, pragmatism, practical consequence, usefulness, William James, John Dewey, philosophy, theories of truth.

Kirish (Introduction). Haqiqatning pragmatik konsepsiyasining gnoseologik manbalari kogerent konsepsiya manbalariga yaqin. Birinchisi ham, ikkinchisi ham anglash jarayonidagi subyektning faol rolini gipertfatsiyasi natijasida yuzaga kelgan. Lekin ular bu faollikni muhokama qilishdagi aksentlar bilan farqlanadi. Kogerent nazariya tarafdorlari subyektning faolligini ahamiyatini, hissiyotga tayangan tajribalarning fikrlashga bog'liq bo'lishida va subyekt oldida konseptuallashtirilgan shaklda namoyon bo'lishida deb bilishadi. Bunday faollik ratsionallik xarakterga ega. Pragmatizm tarafdorlari anglashda amaliy faollikning rolini ta'kidlab o'tishadi, ularning fikricha, bu narsa haqiqatga erishish imkonini bermaydi. Ularning falsafasini muhim tomoni, uni empirizmga tortilishi bo'lib, u o'z navbatida ratsionallik muhohadaning alternativasi sifatida ko'riladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Haqiqatning pragmatik nazariyasining mohiyatini, uni gnoseologik ildizlarini to'g'ri xarakteristikasini polshalik mantiqchi va faylasuf K.Aydukevich berdi. Uning fikricha, haqiqatning barcha klassik bo'lmagan nazariyalari, shu jumladan pragmatik nazariya, haqiqat mohiyatini reallikka mos ravishda emas, "oxirgi kriteriy"ga mos ravishda ko'rib chiqadi. Bu ko'rsatma pragmatizmga quyidagicha amalga oshiriladi [1].

"Pragmatizm, deb yozadi K.Aydukevich, – ma'lum tasdiqning haqiqiyliqi, uni oxirgi kriteriy bilan mos kelishidan iborat. Lekin bu oxirgi kriteriy, pragmatizm tomonidan radikal shaklda ko'rib chiqilib, shu tasdiqning harakat uchun foydaliligidir. Bundan ushbu tasdiqni uning foydaliligi bilan tenglashtiradigan belgisi kelib chiqadi" [4]. Haqiqat konsepsiyasining foydaliligi pragmatizm quyidagi "pragmatik argument" asosida keladi: "bizning ishonchimiz amaliy faoliyatimizga bog'liq bo'ladi" ishonchimiz bizning harakatlarimizga ta'sir ko'rsatadi, ularga yo'nalish beradi, belgilangan maqsadlarga erishish vositalarini ko'rsatadi. Agar

bu ta'sir harakatlarimizni samarali qilsa, maqsadga erishishga ko'maklashsa, u holda bizning ishonchimiz haqiqiydir". Pragmatizmga bag'ishlangan ba'zi falsafiy adabiyotlarda pragmatizm haqiqatning klassik konsepsiyasini inkor etmaydi, deb ta'kidlanadi. Bunday nuqtayi nazarni N.Resher B.Rasselga qarata aytgan tanqidlarida ta'kidlagan edi. Rassel pragmatizmni tan olmagan, uning fikricha u quyidagi absurd xulosaga olib keladi: boshqa odamlarning mavjudligi haqiqat, degan gap bilan boshqa odamlar mavjudligiga ishonish foydali, degan gaplarning ma'nosi bir xildir.

Bunga javoban Resher, Rassel bu vaziyatda ahamiyat bilan haqiqat kriteriysi o'rtasida farq keltirmaydi, deb ko'rsatadi. Resherning fikricha, pragmatizm, fikrlarni reallikka mos kelishi sifatida ifodalangan haqiqatning klassik tushunchasidan voz kechmaydi va foydalilikni haqiqat kriteriysi sifatida ko'rib chiqadi. Resherning fikrlari aniq asoslarga ega. Pragmatizmning tarafdorlari ba'zida, ularning falsafalari haqiqatning klassik konsepsiyasi bilan mos keladi, deb aytib o'tganlar. I.Xill U.Jems haqida shunday yozgan: "… u bir necha marta shuni ta'kidladiki, boshqa ko'pgina faylasuflar kabi, uning uchun ham haqiqat g'oyaning va obyektning muvofiqligidir" [5]. Bu vaziyat klassik konsepsiyaning ommalashgani, va pragmatiklarni "sog'lom ma'no" bilan ayrilishni hohlamaganliklari bilan tushuntiriladi. Agar biz haqiqatning pragmatik konsepsiyasini tarafdorlarning alohida mulohazalari asosida emas, pragmatizmni anglashning butun nazariyasi asosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, u holda biz osongina uning klassik konsepsiyaga butunlay ziddigini aniqlashimiz mumkin. Pragmatizmga ko'ra, foydalilik na kriteriyga, na haqiqatni korrelyatoriga mansub. Boshqacha qilib aytganda, uning nuqtayi nazariga ko'ra, foydali bo'lgan bilimlar ham reallikka mos kelar ekan. Tashqi olamning realligi inson uchun mavhum, chunki inson o'z faoliyati bilangina bevosita bog'langan. Shuning uchun u o'rnata

oladigan yagona narsa, bu bilimlarni haqiqatga mos kelishi emas, bilimlarni amaliy foydaliligidir. Aynan foydalilik inson bilimlarining asosiy qiymatidir, u haqiqat deb nomlanishga to'liq haqli sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Haqiqatning pragmatik mohiyati va shakllarini ochib berishga bag'ishlangan mazkur maqolada ilmiy-tadqiqotning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, analogik tahlil kabi metod va usullardan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Pragmatizm o'zining boshlang'ich mohiyati bilan sahnadan chiqib bo'lgan. Lekin bu, haqiqatning pragmatik konsepsiyasi faqat tarix mulki deb bo'lmaydi. Hozirgi kunda pragmatizmning davomi va rivoji sifatida ko'rish mumkin bo'lgan nazariyalar mavjud. Bunga avvalambor operatsionalizm – amerikalik fizik va fan metodologi P. Brijmen yaratgan falsafa kiradi. Operatsionalizm to'qnash keladigan aossiy falsafiy muammo, haqiqat muammosi emas, uning ahamiyatini muammosidir. Brijmen ahamiyatning klassik nazariyasini tanqid ostiga qo'yadi, unga ko'ra atamaga referent – buyum yoki uning xossalari mos keladi. Uning fikricha, tushunchalarning mazmuni buyumlarning xossalari bilan emas, bu tushunchalarni qo'llash bo'yicha bajariladigan operatsiyalar bilan aniqlanadi. Operatsion taxlilning asosiy g'oyasi, Brijmenga ko'ra, quyidagicha: “biz tushunchalarning ahamiyatini, bu tushunchalarni aniq vaziyatlarda qo'llanilishi bo'yicha foydalaniladigan operatsiyalarni aniqlab olmagunimizcha bila olmaymiz”. Bu talablardan ilmiy tushunchalarni qo'llanilishiga nisbatan operatsionalizm tomonidan qo'yilgan cheklanishlar kelib chiqadi. Tushunchalarga ega bo'lgan operatsiyalarni ko'rsatishga imkonimiz bo'lmagan taqdirda, ular mazmunsiz xarakterga ega va ilmiy tadqiqotlardan chiqarib tashlanishi lozim. Lekin operatsionalizm haqiqat haqidagi masalalarni chetlab o'ta olmaydi. Bunda haqiqatning muammosi mavjudlik muammosi yorlig'i ortiga yashiringan. Bu, operatsionalizm haqiqatning mustaqil muammosi yo'qdek qilib ko'rsatadi [6].

Haqiqat haqidagi masalalarni mavjudlik masalalariga olib borib taqash tendensiyasi nafaqat operatsionlazmda rivojlandi. U F.Ramsey nomi bilan bog'liq, u “R-haqiqat” degan gap R ga ekvivalent, “R-yolg'on” degan gap esa R emas, deb hisoblar edi. “Sezar o'ldirilganligi haqiqat” degan tasdiq, Ramseyga ko'ra, sezar o'ldirilgan, degan gap bilan bir xil ma'noga ega. Bunda haqiqat tushunchasi semantik ma'noda ortiqcha hisoblanadi va eliminatsiya qilinadi. Haqiqatga nisbatan bunday nuqtayi nazarga Stroson va Ayerlar ham ega.

Brijmen uchun, Ramseyga kabi, “R-haqiqat” degan gap R ga ekvivalent. Lekin Brijmen, Ramseydan farqli ravishda, mavjudlikning maxsus kriteriysini kiritadi. Bu kriteriyga ko'ra, amaliy yutuqqa olib keladigan narsalargina mavjud bo'la oladi. Brijmen quyidagilarni yozadi: “Aniq tushunchani samaradorligini qanday qilib bilish mumkin, degan savolga birgina javob mavjud. Bu tajriba javobi. Tushunchalar shuning uchun samaraliki, biz ular ustida operatsiyalar bajaramiz, ular esa ishlaydi. Biz tushunchani barcha mumkin bo'lgan vaziyatlarda qo'llaymiz, agar xato qilmasak, uning ishonchli ekanligini sezamiz va unga “mavjud” degan maqomni beramiz. Bunda haqiqatning Jemsovlik konsepsiyasi qalqib chiqmoqda – faqat bunda haqiqatning muammosi mavjudlik muammosi ko'rinishida namoyon bo'ladi [5].

Haqiqatning pragmatik konsepsiyasi ilm fanga nima olib kelgani haqida, fundamental fizik nazariyalarga nisbatan qo'llaniladigan Brijmenlik operatsionalizmdan kelib chiqadigan xulosalarga ko'ra aytish mumkin, masalan nisbiylikning umumiy nazariyasiga. Brijmenga ko'ra, nisbiylik nazariyasi fizik ma'noga ega emas, va demakki, haqiqat emas, chunki u nooperatsional tushunchalardan foydalanadi, misol

uchun nuqtali vaziyatlar, kovariant qonunlar, geometrlashtirilgan gravitatsion maydon va hokoza. Mazmundorlikning, haqiqatning operatsionalistik talablari nisbiylikning umumiy nazariyasidan voz kechishgagina olib kelmaydi. U ma'lum miqdorda butun fizikani birlashtiradi. Operatsionalizm abstrakt sistemalarni eliminatsiyasini talab qiladi, ular zamonaviy fizikada muhim rol o'ynaydi. Haqiqatning kogerent, pragmatik va boshqa nazariyalari klassik konsepsiyaning alternativarlari hisoblanadi. A.Tarskiyning haqiqatning semantik nazariyasi o'zgacha xarakterga ega, uning maqsadi klassik konsepsiyadan voz kechish emas, uni ratsionallashtirishdir [6].

Tarskiyning nazariyasi – bu falsafiy emas, mantiqiy nazariya. Lekin predmetning xususiyatiga ko'ra, bu nazariyaning ahamiyati mantiq chegarasidan chiqib ketgan. U yaratilganidan keyin, haqiqatning muammolarini yechish uchun qo'llash mumkin bo'lishiga taalluqli bo'lgan bir qator masalalar yuzaga keldi, ular anlash nazariyasi tomonidan qo'yildi. Biz Tarskiyning nazariyasi shu nuqtayi nazardan ko'rib chiqiladi [2].

Ko'rib chiqilayotgan nazariyaning asosiy maqsadi yolg'onchining paradoksini yengib o'tishga qaratilgan. Tarskiy nazarida u haqiqat haqidagi ta'limotga nisbatan mantiqan ziddir. Uning fikricha, klassik nazariyani har qanday rekonstruksiya ikkita talabga javob berishi kerak: moddiy adekvatlika va formal ziddiyatlarga. Moddiy adekvatlikning mohiyati shundaki, rekonstruksiya uchragan haqiqat tushunchasining istalgan formulirovkasi Arastu bergan ifodaga mos kelishi lozim. Moddiy adekvatlikni talablarini aniqroq ifoda etishga intilgan holda, Tarskiy haqiqatning ristotellik definitsiya-sini aniqlab oldi. Misol uchun, haqiqiylikiga shubha qilmaydigan gapimiz bo'lsin, masalan, “Qor oppoq”. Bu gap haqiqat deganda nimani nazarda tutamiz? Arastulik ifodaga ko'ra, bu gap qor oppoq bo'lsagina haqiqiydir.

Biror narsani tasdiqlaydigan gap bilan shu gapda berilgan narsani farqini keltirish uchun, Tarskiy mantiqan ishlab chiqqan quyidagi tajribani qo'lladi. Gapni ikkilamchi nuqtayi nazardan ham ko'rib chiqish mumkin: shaxsiy nom va uning mazmuni aspektida. Mantiqda gapga nisbatan bunday ikkilamchi yondashuv eslatma va atamalarni qo'llash orasidagi farqga mos keladi. Birinchidan, gaplar obyektlar haqida nimalarmidir so'zlaydi. Ikkinchidan, ular shaxsiy nom sifatida ko'rishga ekvivalent deb esga olinishlari mumkin. Bu farqni ta'kidlash uchun, gapni eslash haqida gapirilayotgan bo'lsa, u qo'shtirnoq ichiga olinadi. Gap gapdan foydalanish haqida borayotgan bo'lsa, u qo'shtirnoqsiz yoziladi. Yuqorida aytilganlarni inobatga olgan holda, haqiqatni Arastucha ifodalanishi aniq misollarga qo'llanilishi mumkin – “Qor oppoq” gapiga – quyidagicha yozilishi mumkin: “Qor oppoq” – haqiqat, agarda qor haqiqatan ham oppoq bo'lsa.

Avvaliga qaraganda, bunday ifodalanish tautologik bo'lib ko'rinadi. Haqiqatan esa bunday emas. Ifodaning chap va o'ng tomonlarida “Qor oppoq” degan gap ikkita turlicha funksiyalarda keladi. Chap tomonda u shaxsiy nom sifatida namoyon bo'ladi, o'ng tomonda esa mazmunining ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Aytib o'tilgan muolajalar umumlashtirilishi mumkin. Misol uchun, bizda R gap bo'lsin. Aniqliklarni inobatga olgan Tarskiy bajargan Arastu definitsiyasiga ko'ra quyidagicha yoziladi: “R” – haqiqat, agar va faqat agar R bo'lsa. Tarskiy fikricha, haqiqat tushunchasining istalgan ratsionallashtirilgan shakli aynan ana shunday ifodalanishi lozim. Faqat bunda biz, bizning ifodamiz haqiqatni klassik tushunchasiga mos keladi, ya'ni moddiy adekvat deb aytishimiz mumkin. Lekin bularning hammasi haqiqat tushunchasining qoniqarli ifodasini yetarlicha sharti bo'la olmaydi. Bunday talablarga javob bera oladigan klassik ifoda mantiqiy ziddiyatlarga olib kelishi mumkin [3].

Haqiqatan ham, agar R o'rniga shaxsiy yolg'onini ta'kidlaydigan gapni kiritdik, biz yolg'onchi paradoksiga

kelamiz. Qoniqarli ifoda bunday ziddiyatlardan ozod bo'lgan bo'lishi lozim. Yolg'onchi paradoksining sabablari ba'zi xususiyatlarga asoslangan, ular tabiiy tilga xos bo'lib, unda haqiqatning klassik tushunchasi joy olgan. Bu til insonning barcha bilimlarini: tashqi olam haqidagi bilimlari, bilimlar haqidagi bilimlari, bilimlarni tashqi olamga munosabatlari haqidagi bilimlarning ifodalanish vositasi sifatida shakllanadi va rivojlanadi. U o'z ichiga tashqi olam predmetlarini anglatadigan lingvistik obyektlarni, bu lingvistik obyektlarni nomlarini va semantik munosabatlar xarakteristikalarini, shu jumladan "haqiqat" atamasini olgan. Tabiiy tillarning lug'ati va sintaksisi o'z o'zidan referent qilinadigan gaplarni paydo bo'lish imkonini beradi, bu esa yolg'onchi paradoksiga olib keladi. Yolg'onchi paradoksini yengib o'tish uchun va haqiqat ifodasini mantiqiy jihatdan ziddiyatsiz qilish uchun, Tarskiy fikricha, tabiiydan shakllangan tilgano'tish kerak [4]. Oxirgisi o'z ichiga ma'lum lug'atni lug'atda keltirilgan so'zlardan "to'g'ri" gaplarni tuzish bo'yicha sintaksis qoidalarini olishi

lozim. Bunda u shunday tuzilgan bo'lishi kerakki, uning ichiga semantik munosabatlarni xarakterlovchi gaplarning nomlari va teminlari kirmasligi lozim. Boshqacha qilib aytganda, shakllangan til doirasida shu tilning semantikasini va uning haqiqiyiligini muhokama qilish kerak emas. Shakllangan tilning haqiqiyiligini muhokama qilish maqsadida maxsus metatil kerak bo'ladi. Bunga nisbatan shakllangan til obyektli til sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Xullas, haqiqatni talqin qilish muammosi va uning mezonlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, haqiqat tayyor, mustahkamlangan bilim emas, balki uni faol izlash jarayonidir. Haqiqatning muhim xususiyati sifatida uning muammoliligi tanlanishi mumkin. Muammolilik xususiyati, mavjud bilimlarning qisqarishi, yetishmasligi, qashshoqligi, to'liq emasligini aks ettiradi va u haqiqatning rivojlanish dinamikasini eng yaxshi tavsiflovchi xususiyatdir.

ADABIYOTLAR

1. Алфимова Ж.П. Проблема универсалий в Львовско-Варшавской школе: диссертация кандидата философских наук. – Москва, 2014.
2. Куприян А.П. Философские вопросы формализации понятия истинности в логической семантике: по исследованиям А. Тарского: диссертация ... кандидата философских наук. – Москва, 1965.
3. Ламберов Л.Д. Семантические и онтологические аспекты дефляционных теорий истины : аналитический подход : диссертация ... кандидата философских наук. – Екатеринбург. 2010.
4. Никифоров А. П. Значение языковых выражений у К. Айдукевича // Эпистемология & философия науки. – 2007. – Т. XIV, № 4. – С. 241-242.
5. Никонов О.А. Онтология пространства и времени в теории относительности: диссертация кандидата философских наук. –Мурманск. 2001.
6. Храмов Ю. А., Бриджмен Перси Уильямс // Физики : Биографический справочник / Под ред. А. И. Ахиезера. — Изд. 2-е, испр. и доп. — М.: Наука, 1983. — 400 с.